



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot  
2024-yil yanvar-fevral*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 76-225-65-74*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 172 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 101 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

# 2




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 149,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 109,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 97,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 051,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 709,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,2 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3149,6</b>	<b>109,3</b>
Termiz sh.	559,9	112,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	137,8	104,0
Angor	154,8	114,8
Bandixon	51,1	110,9
Boysun	135,7	111,0
Muzrabot	137,4	113,4
Denov	652,0	105,3
Jarqo'rg'on	169,7	109,8
Qumqo'rg'on	150,8	107,4
Qiziriq	143,7	109,6
Sariosiyo	131,3	105,7
Termiz	65,6	110,3
Uzun	147,4	110,1
Sherobod	193,2	111,8
Sho'rchi	319,2	109,2


2024-yilning yanvar-fevral oyida 2023-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan viloyatning Angor (114,8 %), Muzrabot (113,4 %) tumanlarida va Termiz sh. (112,6 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral)



So'ngi 5 yillikda (2020- 2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) ( 2023-yil, 2024- yil yanvar –fevral oylari )



2024-yilning yanvar-fevral oyida o'sish sur'ati **109,3 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 20,7 % bilan 652,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,6 % bilan 51,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 051,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 9,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 14,3 % ga oshdi va 97,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,1 % ulushiga to'g'ri keldi.



### CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,5 %) va Angor (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahri (7,2 %), Denov (4,8 %), Jarqo'rg'on (2,9 %) va Termiz (2,9 %) tumanlarida kuzatildi.

3,1 %



96,9 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024-yilning yanvar-fevral oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 108,3 ming. so'mni (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 106,7 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (2 819,4 ming. so'm), Denov (1 571,5 ming. so'm) va Sho'rchi (1 413,5 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari



# UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

9


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	<b>709,8</b>	<b>116,2</b>
Termiz sh.	59,2	178,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	52,0	86,2
Angor	25,3	113,4
Bandixon	35,9	111,1
Boysun	47,7	123,8
Muzrabot	64,5	130,7
Denov	75,7	122,7
Jarqo'rg'on	38,8	113,5
Qumqo'rg'on	42,5	88,3
Qiziriq	50,2	110,8
Sariosiyo	49,4	96,2
Termiz	23,3	137,8
Uzun	50,4	109,0
Sherobod	39,3	196,6
Sho'rchi	55,6	109,2


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-fevral)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-fevral)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 709,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 116,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 164,3 mlrd. so'mni (150,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 220,7 mlrd so'mni tashkil etdi (114,2 %).













2024-yilning yanvar-fevral oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 310,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga ( 148,3 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>148,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>47,7%</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>34,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>11,2 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va</b></p> <p><b>28,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>9,3 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>8,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,8 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>16,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,2 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>10,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,2 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>7,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,3 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>9,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,0 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>4,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>1,5 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>11,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,6 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>7,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,3 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>24,4 mlrd. so'm</b></p> <p>7,9 %</p>

2024-yilning yanvar-fevral oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 399,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 296,6 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 98,2 mlrd. so'mni, otlar – 3,3 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>196,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>49,1 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>54,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>13,7 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>45,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>11,5%</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>83,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>21,0 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>3,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,8 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>14,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,6 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0 mlrd. so'm</b></p>  <p>%</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 389 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 387 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	<b>89,1</b>	<b>109,7</b>
Termiz sh.	35,1	115,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2,0	108,1
Angor	2,5	107,6
Bandixon	0,5	103,1
Boysun	1,8	105,7
Muzrabot	2,3	106,5
Denov	14,2	101,7
Jarqo'rg'on	5,3	111,3
Qumqo'rg'on	2,5	107,7
Qiziriq	1,8	110,4
Sariosiyo	3,8	112,3
Termiz	6,2	102,6
Uzun	2,3	107,7
Sherobod	5,1	105,6
Sho'rchi	3,7	114,2

2024-yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 89,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 98,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
Surxondaryo viloyati	<b>147,1</b>	<b>42,2</b>
Termiz sh.	41,9	27,3
tumanlar:		
Oltinsoy	0,7	109,5
Angor	4,3	108,3
Bandixon	0,1	108,7
Boysun	0,5	107,8
Muzrabot	0,2	108,3
Denov	77,5	45,7
Jarqo'rg'on	10,7	108,7
Qumqo'rg'on	0,6	108,8
Qiziriq	0,5	112,1
Sariosiyo	1,5	110,8
Termiz	3,2	109,1
Uzun	0,2	108,9
Sherobod	0,8	109,4
Sho'rchi	4,4	108,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (77,5 mlrd. so'm) va Termiz shahri (41,9 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)



2024-yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 147,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 57,8 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 30,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 21,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 116,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –56,8 %) tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 798,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 755,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 113,6 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,6 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024-yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 133 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 114 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Sariosiyo (4,1 m ) va Sho‘rchi (2,1 m ) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>798,4</b>	<b>109,2</b>
Termiz sh.	208,2	116,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	16,2	90,3
Angor	12,2	113,8
Bandixon	10,0	112,1
Boysun	6,3	111,0
Muzrabot	46,4	104,4
Denov	279,5	106,4
Jarqo‘rg‘on	35,8	95,7
Qumqo‘rg‘on	10,9	95,4
Qiziriq	4,4	108,4
Sariosiyo	27,3	115,5
Termiz	61,5	114,9
Uzun	11,8	112,9
Sherobod	15,7	104,9
Sho‘rchi	52,2	112,8